

**MAQSUD SHAYXZODANING JALOLIDDIN
MANGUBERDI ASARINING AHAMIYATI**

Ikramova Feruza Xayrullayevna

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Avtomobil yo'llarini qidiruv
va loyihalash kafedrasи dotsenti e-mail: feruza.ikromova71@gmail.com*

Imomova Mohidil Furqat qizi

*Toshkent Davlat Transport Universiteti YMAE-7 guruhi talabasi
e-mail:mohidilimomova05@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning sevimli shoiri, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzodaning davlat arboblari, sarkardalar va oddiy xalq uchun qiziqarli bo'lib kelgan Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati, faoliyati va harbiy iste'dodi bayon etilgan.

Annotation: This article describes the personality, activity and military talent of our nation's favorite poet, dramatist, literary scholar, translator, pedagogue Maqsud Sheikhzadeh, Jalaluddin Manguberdi, who has been interesting to statesmen, generals and ordinary people.

Kalit so`zlar: Maqsud Shayxzoda, Jaloliddin Manguberdi, o'zbek adabiyoti, tarixiy davr, yurtining ozodligi va mustaqilligi davlat boshqaruvi, dramma, doston,

Key words: Maqsud Shaikhzada, Jalaluddin Manguberdi, Uzbek literature, historical period, freedom and independence of the country, state administration, drama, epic,

Maqsud Maqsumbek o'g'li Shayxzoda (Maqsud Shayxzoda)-1908-yil 7-noyabr sanasida, Ozarbayjon Respublikasi, Ganja viloyati, Oqtosh shahrida tavallud topdi. Maqsud Shayxzoda shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. Bokudagi doril-muallimni tugatgan. Maqsud Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan „Jaloliddin Manguberdi“ tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shoxining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniylashtirishga etilgan.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasida Shayxzoda Vatan erki, mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib borgan mana shu jasur sarkarda qiyofasini badiiy gavdalantirdi. Jaloliddin Manguberdi Amir Temurga ham ibrat bo'lgan buyuk siymodir. Taniqli adabiyotshunos Naim Karimovning fikriga ko'ra, urush yillarida hokimiyat vakillari yozuvchilarni o'tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da'vat etishgan. Ular bunday asarlar xalq va armiyani o'tmishdagi jasur sarkadalardan, xalq qahramonlaridan ibrat olishga, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlari ruhida tarbiyalashi mumkin degan qarashda bo'lishgan. Shunday ijodiy buyurtmani olgan Shayxzoda o'zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin Manguberdi haqida sahna asari yozishga kirishgan. Respublikaning o'sha paytlardagi rahbari Usmon Yusupov shoirning asarini

tezroq yakunlashi uchun uni yurtimizning xushmanzara maksanlaridan biri Farg'ona viloyatiga yuboradi. "Boshqa ishlar bilan xayolingni bo'lma. Xalq sendan Jaloliddin to'g'risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!" deya rahbar shoirni ruhlantiradi. Shunday qilib, Maqsud Shayxzoda rafiqasi Sakinaxonim bilan Farg'onaga borib, olti oy ichida tarixiy dramani yozadi. Buni qarangki, odamlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini jo'sh urdiruvchi, qahramonlik ruhidagi bu asar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Oradan ko'p yillar o'tsa ham Shayxzoda domla asarlari o'z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda.

Maqsud Shayxzodani shoir va yozuvchlar shunday tariflaytdi: Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma yerda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondagи quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti rivojiga kata hissa qo'shgan shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. Uning she'rлarida jo'shqinlik, sevgi, vatanga mehr kabi tuyg'ular seziladi. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi inson qalbida mehr va iliqlik uy'otadi. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o'rganishlik, ulardan habardor bo'lishlik hamda ularni hayotga tadbiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqqiyat sari yetaklaydi. Maqsud Shayxzoda hayot yo'li bizda kuchli harakter shakillantiradi. Uning hayot zarbalariga sabr bilan dosh berishi va o'z faoliyatidan to'xtamasdan, matonat bilan ijod qilishi barchamizga o'rnak bo'la oladi. Maqsud Shayxzodaning Jaloliddin Manguberdi obrazi, jasoratlari asrlar o'tsa hamki, o'z qadr-qimmatini, ahamiyatini yo'qotmaydi. U kishida Vatanparvarlikdek Oliy tuyg'uga xizmat qilishdek muqaddas burchni jo'sh urdirib turadi.

Dunyonni, insoniyatni larzaga solgan Ikkinchи jahon urushining hal qiluvchi, eng hayajonli damlari. Millionlab odamlarning yostig'ini quritgan Falokatning yakuni yaqin. Yakun nurli bo'lishi uchun yana necha millionlab insonning qo'llari duoda. Bunday vaziyatda Vatan himoyachilari — askarlar irodasiga ta'sir etuvchi har qanday kuch katta ahamiyatga ega. Shunday o'ta muhim paytda yozuvchi Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasi dunyoga keldi.

Mazkur asar teatrda sahnalashtirildi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Manguberdining kishida hayajonli faxr tuyg'usini junbushga keltira oladigan qahramonliklari aks etgan mazkur drama urushga ketayotgan askarlarga maxsus namoyish etilib, frontga jo'natilgan ekan. Bu esa askarlarda jangovar ruh va shijoat uyg'otib, dushmanga nafratni kuchaytirgan.

Tog' bag'rida gurjilar xuddi zulmat singari yoyilib, Xorazmshohni kutib turardilar. Ularning Sultonni ko'rgan zahoti qilgan birinchi qiliqlari — osmonni teshib yuborguday qichqirishlari bo'ldi. Ikki tomon orasida shiddatli jang bo'lib o'tdi. Oqibat shu bo'ldiki, gurjilar mag'lub bo'lib, Xorazm qo'shinidan arang qochib qutuladilar.

Mavqeidan mo'g'ullar ham hayiqib qolgan Manguberdi 1227 yilning tsentyabrida asosiy dushman bilan to'qnashdi. Jang ayovsiz kechadi. Unda, ayniqsa, mo'g'ullar ko'p talafot

ko'radilar. Biroq jangning eng qizg'in pallasida Jaloliddinning ukasi G'iyyosiddin Pirshoh unga xoinlik qilib, qo'shinlari bilan qochib ketadi. Lekin shunda ham Jaloliddin zafar qozonadi, mo'g'ullar talafot ko'rib, qochishga tushadilar. Mo'g'ul lashkarboshilaridan biri Taynal no'yon Jaloliddinning bu jangdagi jasoratini ko'rib, shunday degan ekan: "Haqiqatan ham u o'z davrining bahodiri va tengqurlarining dohiysidir!"

Xalq Jaloliddin bu dunyodan ketganiga ishonmaydi. Xizrni ko'rgan Manguberdi darveshlar orasida bir so'fiy kiyimida Islom mamlakatlarida, xalq ichida kezib yuribdi, degan ishonch bilan uning yana kuch to'plab bizni himoya qiladi, deb kutadilar. Ular holdan toygan Vatanparvarning bir kurd tomonidan nomardlarcha halok etilib qo'yilishiga ishongilari kelmaydi. Ular sultanatning so'nggi davrlarida xalqning issiqlidan va suvsizlikdan qiynalayotganini ko'rib, yada toshi vositasida yomg'ir yog'dirishdek mo''jiza yaratgan Sultonning o'lganiga ishonmaydilar.

...Hattoki, hozir ham Manguberdining tirikligiga ishonuvchilar topiladi. Zero, Jaloliddinning o'zi shunday degan (M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasidagi bobomiz obrazining so'zlari):

Mangulikdan joy olgan — yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.
Ko'klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,
Balki sahro bag'ridan, tog' etagidan,
Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,
Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda – go'rda.
Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yov quvsa –mendurman o'shal...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://khorezmiy.uz/oz/pages/view/324>
2. Shayxzoda Maqsud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o'zbekcha).
3. Botir Ergashov "Mendurman o'shal" she'riy to'plami